

**МАХАЛАЛДА ОГ‘ИР ИЖТИМОЙ ХОЛАТГА ТУШИБ QOLGAN
ХОТИН-КИЗЛАРНИНГ РУХИЙ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИYАТЛАРИ**

Ataniyazova Maksuda Baltabayevna

*Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
loyiha katta ilmiy xodimi, i.f.f.d. (PhD).*

Annotatsiya. Ushbu maqolada mahallalarda ayollar duch kelayotgan ijtimoiy va psixologik muammolarni erta aniqlash hamda bartaraf etish mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida xalqaro va mahalliy tajribalar o‘rganildi. Muammolarni aniqlashda uyma-uy monitoring, psixologik suhbatlar, raqamli platformalar va fuksional tahlil usullari qo‘llaniladi. Ularni bartaraf etishda esa kompleks yondashuv – psixologik yordam, huquqiy maslahatlar, iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash, kasbiy qayta tayyorlash va institutsional hamkorlik muhim o‘rin tutadi. Ushbu yondashuvlarni mahalla tizimiga tatbiq qilish ayollarning farovonligi va ijtimoiy faolligini ta’minlashda muhim vosita sifatida e’tirof etiladi.

Аннотация. В данной статье анализируются механизмы раннего выявления и устранения социальных и психологических проблем, с которыми сталкиваются женщины в махаллях. В ходе исследования изучался международный и отечественный опыт. Для выявления проблем используются подворный мониторинг, психологическое интервью, цифровые платформы, методы функционального анализа. Для их устранения важную роль играет комплексный подход – психологическая помощь, юридические консультации, экономическая поддержка, профессиональная переподготовка, институциональное сотрудничество. Внедрение этих подходов в системе махаллей признано важным инструментом обеспечения благополучия и социальной активности женщин.

Annotation. This article analyzes mechanisms for early identification and elimination of social and psychological problems faced by women in makhallas. During the study, international and local experiences were studied. House-to-house monitoring, psychological interviews, digital platforms, and functional analysis methods are used to identify problems. In order to eliminate them, an integrated approach - psychological assistance, legal advice, economic support, vocational retraining, and institutional cooperation - plays an important role. The implementation of these approaches in the makhalla system is recognized as an important tool for ensuring the well-being and social activity of women.

Kalit so‘zlar. Ayollar muammolari, mahalla tizimi, ijtimoiy yordam, psixologik diagnostika, zo‘ravonlik, huquqiy himoya, iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash, gender tengligi

Ключевые слова: Проблемы женщины, максаллинская система, социальная помощь, психологическая диагностика, насилие, правовая защита, экономическая поддержка, гендерное равенство.

Keywords: Women's issues, mahalla system, social support, psychological assessment, violence, legal protection, economic empowerment, gender equality.

KIRISH

Bugungi globallashuv va tezkor ijtimoiy o'zgarishlar davrida xotin-qizlarning hayot sifatini oshirish, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash, shuningdek, salbiy ijtimoiy-psixologik holatlarning oldini olish har bir jamiyatning muhim vazifalaridan biridir. Ayniqsa, mahalla tizimida xotin-qizlarning muammolarini erta aniqlash va ularni tizimi tarzda bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki mahalla — bu aholining eng yaqin ijtimoiy muhiti, shaxs va jamiyat o'rtaсидаги ко'пrik bo'lib xizmat qiluvchi institutdir.

Xotin-qizlar ko'pincha oilaviy zo'ravonlik, ijtimoiy izolyatsiya, ishsizlik, ruhiy tushkunlik, ijtimoiy yordamga muhtojlik kabi omillarga duch keladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining 2023-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, har uchinchi ayol hayotida hech bo'limganda bir marta ruhiy yoki jismoniy zo'ravonlikka duch kelgan bo'lib, ularning ko'pchiligi bu holatni jamiyatdan yashirishga majbur bo'lgan⁷. Bu kabi muammolar vaqtida aniqlanmasa, ular nafaqat ayolning ruhiy salomatligiga, balki farzandlar tarbiyasi, oilaviy muhit va jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikka ham jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda xotin-qizlar muammolarini erta aniqlash va ishslash tizimini yanada takomillashtirish, ularni ijtimoiy — huquqiy, psixologik, tibbiy va moddiy qo'llab-quvvatlash borasida Respublikamizda tizimli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-martdagi 145-sonli "Xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ahamiyatlidir⁸.

Ijtimoiy va psixologik yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan monitoring va yordam tizimlari, jumladan, uydan-uyga tashriflar, ijtimoiy suhbatlar, psixodiagnostika, huquqiy maslahatlar va tibbiy-psixologik xizmatlar xotin-qizlar muammolarini erta aniqlashda samarali usul hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari. Hozirgi kunda mahalla tizimi, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyati, shuningdek, ayollarining ijtimoiy va psixologik muammolarini aniqlash va hal etishdagi rolini tahlil qilish bugungi kunning muhim masalalaridan biridir.

Ayollar muammolarining ommaviy axborot vositalari va internetda qanday yoritilayotganini o'rganish maqsadida kontent tahlili usuli qo'llanildi. Jumladan, mahalliy gazetalar, televidenie dasturlari, veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlardagi

⁷ WHO, 2023

⁸ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-martdagi 145-sonli "Xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.04.2022-y., 09/22/145/0253-son, 10.09.2022-y., 07/22/373/0808-son, 29.09.2022-y., 09/22/541/0859-son; 13.01.2023-y., 06/23/2/0024-son; 29.12.2023-y., 07/23/422/0994-son; 27.04.2024-y., 09/24/237/0303-son; 19.06.2024-y., 09/24/313/0426-son; 26.08.2024-y., 09/24/527/0645-son; 11.12.2024-y., 09/24/833/1016-son; 03.03.2025-y., 09/25/135/0208-son)

kontentlar tahlil qilindi. Shu bilan birga, davlat idoralari tomonidan chiqarilgan rasmiy hujjatlar, qarorlar va dasturlar orqali ayollarga oid muammolarga davlat darajasida qanday yondashilayotgani o‘rganildi. Bu tahlil orqali ayollar muammolarining qay darajada dolzarbliyi, ularga nisbatan jamoatchilik kayfiyati va mavjud yechim mexanizmlari haqida umumiy tasavvur hosil qilindi.

Kontent tahlili natijalari shuni ko‘rsatdiki, ommaviy axborot vositalarida ayollar muammolari, ayniqsa, oilaviy zo‘ravonlik, ishsizlik, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohasidagi to‘siqlar haqida ma’lumotlar ko‘p hollarda rasmiy va ommabop formatda berilsa-da, ayollarning shaxsiy fikrlari va individual tajribalari yetarlicha yoritilmaydi. Bu esa tadqiqotchiga jamoatchilik fikri va rasmiy ma’lumotlar o‘rtasidagi farqni chuqurroq o‘rganish zarurligini ko‘rsatdi.

Natijalar. Og‘ir ijtimoiy holatga tushib qolgan xotin-qizlarning ruhiyatida doimiy qo‘rquv, tushkun kayfiyat, qayg‘u ayrim holatlarda norozilik, uyatchanlik, ikkilanish va h.k. salbiy hislar ustuvorlik qiladi.

Shuning uchun og‘ir ijtimoiy holatga tushib qolgan xotin-qizlarning ruhiy-psixologik holatiga alohida e’tibor qaratish zarur.

Ularni bu kabi salbiy hissiyotlardan xalos bo‘lishi uchun ko‘maklashish kerak. Chunki ushbu his-tuyg‘ular insonni maqsad sari intilishlarini yo‘qotishiga sabab bo‘ladi.

Maqsad sari intilmaydigan, motivatsiya yetishmasligidan azob chekadigan insonlar ko‘p hollarda xayolparastlikka berilgan, aqlarini ishlatalishni xohlamaydigan, o‘ziga ishonchi yo‘qolgan, o‘ziga bee’tibor, hayotga qiziqishi so‘ngan, noumid inson bo‘lib qoladilar.

Ayrim holatlarda nafaqat og‘ir ijtimoiy holatga tushib qolgan xotin-qizlar (xizmat oluvchi), shu jumladan uning oilasining barcha a’zolariga psixologik yordam ko‘rsatish talab etiladi.

O‘zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy va psixologik muammolarini bartaraf etish borasida davlat tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, ayrim sohalarda yechimini kutayotgan muammolar hamon saqlanib qolmoqda. Mahalla tizimi orqali xotin-qizlarning muammolarini erta aniqlash va ularga yordam ko‘rsatish mexanizmlari rivojlanib borayotgani kuzatilsa-da, bu jarayonda tizimli yondashuv va mutaxassislar yetishmasligi muayyan to‘siqlar keltirib chiqarmoqda.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda ayollarning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha muayyan chora-tadbirlar ko‘rilmoxda. Shu bilan birga, ayollarning ijtimoiy hayotda to‘laqonli ishtirok etishiga to‘sinqinlik qilayotgan bir qator muammolar hanuzgacha o‘z yechimini topmagan. O‘rganishlarga ko‘ra, quyidagi muammolar ayniqsa dolzarb hisoblanadi:

Ishsizlik va iqtisodiy qiyinchiliklar. Ayollar o‘rtasidagi ishsizlik darjasini hali ham yuqori bo‘lib qolmoqda, ayniqsa, qishloq joylarida bu muammo yanada keskin tus olgan. Hunarga ega bo‘lmagan yoki ta’lim darjasini past bo‘lgan xotin-qizlar ish bozorida raqobatbardosh emas. Ko‘p hollarda ayollar vaqtinchalik yoki norasmiy ish bilan shug‘ullanishga majbur bo‘ladi, bu esa ularning iqtisodiy barqarorligini ta’minlay

olmaydi. Ishsizlik ayollarning iqtisodiy mustaqilligini cheklaydi, ularning oiladagi va jamiyatdagi faolligini pasaytiradi, shu bilan birga ruhiy bosim va tushkunlikni keltirib chiqaradi.


Ma'lumot yetishmasligi va xabardorlik darajasining pastligi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ko'plab ayollar mavjud kasb-hunar kurslari, psixologik va huquqiy xizmatlar haqida yetarlicha ma'lumotga ega emaslar. Bu xabardorlikning pastligi nafaqat qishloq, balki ayrim shaharlarda ham kuzatilmoqda.

Axborot yetishmasligi ayollarning faolligini pasaytiradi, o'z muammolarini hal qilishda huquqiy yoki iqtisodiy yechim topish imkoniyatini cheklaydi.

Oilaviy zo'ravonlik va ijtimoiy bosimlar. Ba'zi mahallalarda oilaviy munosabatlarda zo'ravonlik holatlari hanuzgacha uchrab turibdi. Bu holatlar jismoniy, ruhiy, iqtisodiy yoki ijtimoiy shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Ayniqsa, ayollar ko'pincha ruhiy bosim va tahdidlarga duch keladi, bu esa ularning psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ayollar aksar hollarda bunday zo'ravonlikni oshkor etmaydilar. Sabab sifatida jamoatchilikning salbiy munosabati, oilaviy urf-odatlar va iqtisodiy bog'liqlik keltiriladi. Qo'rquv va ishonchsizlik tufayli ko'p ayollar huquqiy yordam so'rashdan tiyiladilar. Ayollar oilaviy zo'ravonlik holatlarini oshkor etmasliklarining asosiy sabablaridan biri bu qo'rquv va ishonchsizlidir.

1-rasm. Dunyo mamlakalarida oiladagi zo'ravonligining tarqalish darajasi



Ko'p ayollar o'z turmush o'rtoqlarining jazolanishidan qo'rqib, o'z muammolarini yashirishga majbur bo'ladilar. Oilaviy zo'ravonlik holatlari ko'pincha jabrdiydalarning o'zları murojaat qilmasliklari yoki ishni javobgarni jazolashgacha olib bormasliklari

sababli yashiriladi⁹. Bu sabablarning barchasi ayollarning oilaviy zo'ravonlik holatlarini oshkor qilish va o'z huquqlarini himoya qilishdagi qiyinchiliklarini oshiradi. Shuning uchun, oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashish uchun jamiyatdagi salbiy munosabatlarni o'zgartirish, oilaviy urf-odatlarning ijtimoiy rolini qayta ko'rib chiqish va ayollarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash muhimdir.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti - JSST, 2021-yil) tomonidan e'lon qilingan "Ayollarga nisbatan zo'ravonlikning tarqalishini baholash" hisobotida keltirilgan ma'lumotlarga asosan, mahalliy darajada xotin-qizlar o'rtasida yaqin jufti tomonidan zo'ravonlikning tarqalishi turli mintaqalarda sezilarli farq qiladi. Xususan, Janubi-Sharqiy Osiyo (37,7%) va Sharqiy O'rta Yer dengizi mintaqasi (37,0%) eng yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lib, bu hududlarda har o'n nafardan uchinchi ayol umri davomida juftidan zo'ravonlikka uchrayotganini anglatadi. Afrika mintaqasida ham zo'ravonlik darajasi yuqori bo'lib, 36.6% ni tashkil etadi. Yevropa va Sharqiy Osiyoda bu ko'rsatkich nisbatan past – mos ravishda 25,0% va 24,6% ni tashkil etadi.

Ushbu ma'lumotlar jahon miqyosida ayollar zo'ravonlikka moyil muhitda yashashini, jumladan mahalliy darajada ularning muammolarini erta aniqlash zarurligini ko'rsatadi. Intim zo'ravonlik ayollarning ruhiy va ijtimoiy holatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilishi, ularni ijtimoiy izolyatsiyaga, iqtisodiy nochorlikka va salomatlik muammolariga olib kelishi mumkin. Shu sababli, ushbu ko'rsatkichlar asosida mahalla darajasida aniqlash, kuzatish va bartaraf etishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi¹⁰.

"Mahallalarda ayollar muammolarini erta aniqlash va bartaraf etish: ijtimoiy va psixologik yondashuvlar" tatbiq qilinishi mumkin bo'lgan asosiy yo'nalishlar va yondashuvlarni ko'rib chiqish masalaning asosiy jihatlaridan biridir.

Ijtimoiy yondashuvlar doirasida faol monitoring tizimini muhim sanaladi. Unga ko'ra, uyma-uy tashriflar orqali mahalla faollari yoki ijtimoiy ishchilar tomonidan har bir oilaga kirib, ayollarning turmush sharoiti, ehtiyojlari, muammolari to'g'risida suhbatlar tashkil etiladi. Mahalla koordinatorlari – maxsus tayyorgarlik ko'rgan xotin-qizlar muammolarini kuzatib, barvaqt mas'ul organlarga xabar beruvchi mahalla miqyosidagi nozirlar faol ish olib boradi.

Raqamli axborot tizimi orqali ayollar muammolarini aniqlab tegishli chora ko'rish imkonи paydo bo'ladi. Anonim murojaatlar uchun Telegram/USSD/E-mail platformalari yaratish – bu tizimlar orqali ayollar o'z muammolarini xavfsiz va yashirin xabar qilish imkoniga ega bo'ladi. "Ayol nazorati" elektron bazasi – qayd etilgan muammolarning statistikasi asosida ogohlantirish va profilaktika rejali tuziladi.

Mahalla va nodavlat notijorat tashkilotlari hamkorligini to'g'ri yo'lga qo'yish orqali hamkorlik tuzish mumkin. Bu orqali psixologik, huquqiy va tibbiy xizmatlarni taqdim etish mumkin. Ko'ngillilar maktabi faoliyatini yo'lga qo'yish orqali mahallada faol

⁹ [Оилавий зўравонлик – жамият дарди - Darakchi.uz](#)

¹⁰ https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/violence-against-women?utm_source

xotin-qizlar, talaba-psixologlar, tibbiyot xodimlari ishtirokida muntazam faoliyat olib borish mumkin.

Jamoatchilikni jalg qilish uchun turli tadbirlar uyuştirish maqsadida ochiq eshiklar kunlari tashkil qilish lozim. Bu haftada bir marotaba jamoatchilik bilan ochiq muloqotni ta'minlaydi. Shuningdek, nogironligi bor, kam ta'minlangan, ajrimdagi ayollar bilan alohida suxbatlar olib borish orqali muammolarni aniqlash mumkin.


Psixologik yondashuv doirasida psixologik diagnostika va testlar o'tkazish lozim. Stress, depressiya, xavotir, ruhiy buzilishlar kabi holatlarni aniqlash uchun psixologik testlar va muloqotlar o'tkaziladi.

Individual va guruhiy terapiya. Individual konsultatsiyalar – malakasi bo'lgan mahalla psixologlari tomonidan yuritiladi. Guruh terapiyalari – ajrashgan ayollar, zo'ravonlikdan jabr ko'rganlar yoki yolg'iz onalar uchun dasturli suhbatlar.

Oila va jamiyat bilan ishlash usullari orqali yordam berish. Oila a'zolari bilan alohida ish – ayolning turmush o'rtog'i, qaynonasi, farzandlari bilan oila ichidagi munosabatni me'yorlashtirish orqali muammolarni hal qilish. Psixoedukatsiya – ayollarga o'z huquqlari, stressni boshqarish, o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish haqida ta'lim berish mumkin.

Quyidagi 1-jadvalda tavsiya etiladigan tizimli yondashuvlar keltirib o'tilgan. Tahlil qilinayotgan diagramma mahalliy darajada ayollar muammolarini aniqlash va hal etishdagi asosiy yo'nalishlarni va ular bilan bog'liq faoliyat shakllarini qamrab oladi. Ushbu tizimda bir necha darajadagi sub'ektlar – mahalla faollari, davlat organlari, NNTlar va tibbiy-psixologik mutaxassislar hamkorlikda ishtirok etadi.

2-rasm. Mahallalarda ayollar muamolarini aniqlash va bartaraf etish yo'nalishlari



Diagrammada tasvirlangan model – kompleks bosqichlarni qamrab olgan va jamoaviy yondashuvni kuchaytiruvchi ijtimoiy-psixologik tizimdir. Bunday yondashuv O‘zbekistonning mahalla instituti uchun ham mos bo‘lib, uning samaradorligi mahalliy mutaxassislar tayyorgarligi, tizimli ma’lumot almashinuvi va xizmatlar intergatsiyasiga bog‘liq

XULOSA

Mahallada ayollar muammolarini erta aniqlash va bartaraf etish – jamiyat barqarorligi, ijtimoiyadolat va gender tengligini ta’minlashda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada tahlil qilingan xorijiy tajribalar va amaliyotlar shundan dalolat bermoqdaki, mahalliy darajada muammolarni barvaqt aniqlash, tizimli va integratsiyalashgan yondashuv asosida ularni hal qilish, ayollarning huquqlari va manfaatlarini samarali himoya qilish imkonini yaratadi.

Eng samarali modellar – jamoatchilik ishtirokini ta’minlovchi, psixologik va huquqiy yordamni birlashtiruvchi, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda tezkor ma’lumot almashishni kafolatlovchi va institutsional hamkorlik asosida yo‘lga qo‘yilgan tizimlardir.

Xulosa qilib aytganda, ayollar muammolarini erta aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy va psixologik yondashuvlar nafaqat jamiyatda ayollarning hayot sifati va xuquqlarini oshiradi, balki oilaviy barqarorlik, farzand tarbiyasi va umumiyligi ijtimoiy muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa O‘zbekistonning barqaror ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim poydevor vazifasini o‘taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-martdagи 145-sonli “Xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori
2. World Health Organization (WHO). (2021). *Violence against women prevalence estimates, 2018: Global, regional and national prevalence estimates for intimate partner violence against women and global and regional prevalence estimates for non-partner sexual violence*. Geneva: WHO. <https://www.who.int/publications/i/item/9789240022256>
3. UN Women. (2022). *Ending violence against women: Programming essentials*. New York: United Nations Entity for Gender Equality and the Empowerment of Women. <https://www.unwomen.org/en/digital-library/publications>
4. Government of South Korea. (2021). *Women’s Happiness Centers Annual Report*. Seoul: Ministry of Gender Equality and Family.
5. Ministry of Women and Child Development, India. (2020). *Integrated Child Development Services (ICDS) and Accredited Social Health Activists (ASHA) Reports*. New Delhi: Government of India.

6. European Institute for Gender Equality (EIGE). (2022). *Gender Equality Index 2022: Country Profiles – Sweden*. Vilnius: EIGE. <https://eige.europa.eu/gender-equality-index>
7. Ahmed-Ghosh, H. (2020). *Violence against women in South Asia*. In *Gender and Society*, 34(1), 45–62. <https://doi.org/10.1177/0891243220909632>
8. UNICEF Uzbekistan. (2021). *Women and children's access to social services in local communities*. Tashkent: UNICEF.
9. Ganiyeva, G., & Isroilova, M. (2022). Mahalla tizimida xotin-qizlar bilan ishlashning ijtimoiy mexanizmlari. *O'zbekiston ijtimoiy fanlari jurnali*, 1(4), 75–83.